

“2024- yilning 1-choragi yakunlari bo'yicha Farg'ona viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili” mavzusida o'tkazilgan matbuot anjumani axboroti

So'nggi yillarda O'zbekistonda statistika sohasini yangi bosqichga ko'tarish va tubdan isloh qilish, tizimga ilg'or texnologiyalarni keng joriy qilish orqali rasmiy statistikaning sifati va unga bo'lgan ishonchni yanada oshirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Ayniqsa, “Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonun va statistika sohasini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyaning qabul qilinishi sohadagi tizimli yangilanishlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini yaratdi. Shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga aylantirildi. Shu bilan birga, ma'muriy islohotlar doirasida statistika organlari faoliyatini yangilangan talablar asosida tashkil etish va ularning mustaqilligini yanada kuchaytirish, sohaga xalqaro sifat modellari hamda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali statistika ma'lumotlarining ishonchliligi va sifatini yanada oshirish zarurati yuzaga kelayotgan edi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114sonli qarori qabul qilindi. Unda milliy statistika tizimining huquqiy va tashkiliy asoslari hamda infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, prezident qarori bilan Statistika agentligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi, Shuningdek, agentlikning rasmiy tashkiliy statistika tuzilmasi sohasida va nizomi islohotlarni tasdiqlandi. chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha “Yo'l xaritasi” hamda Statistika agentligining 2024-2025-yillarda erishishi lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, milliy statistika tizimini samarali tashkil etishda ko'maklashish hamda faoliyatni muvofiqlashtirish ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida, Statistika agentligi huzuridagi Statistika kengashi yangilangan tarkibda tashkil etilib, uning vakolat va majburiyatlari mustahkamlab qo'yildi. Qarorga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy statistika sifatini ta'minlash bo'yicha bazaviy prinsiplarini milliy statistika tizimiga joriy etish maqsadida: statistika ma'lumotlarini xalqaro GSBPM modeli asosida shakllantirilishi yo'lga qo'yiladi; rasmiy statistikani tayyorlovchilarning har birida rasmiy statistikada sifat va tarqatish siyosatlari ishlabchiqiladi; xalqaro ekspertlarni keng jalb etgan holda milliy statistika tizimini global baholashdan o'tkazish tashkil etiladi. Shu bilan birga, sohaga autsorsing tizimini joriy etish maqsadida, statistika kuzatuvlarini amalga oshirish jarayoniga konsalting kompaniyalari, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari jalb etiladi. Tizimda integratsiya jarayonlari tubdan yaxshilanadi. Jumladan, “Statistika” integrallashgan axborot tizimini 6 ta vazirlik va idoralar axborot tizimlaridagi ma'lumotlarga hamda “Elektron hukumat” tizimining Idoralararo axborot platformasiga integratsiya qilish yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlaridan qoniqish darajasini aniqlash va oshirib borish maqsadida, Statistika agentligi tomonidan “Rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ishonch indeksi” uslubiyoti ishlab chiqiladi hamda 2025-yildan boshlab, har yili foydalanuvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazilib, natijalari e'lon qilib boriladi. Tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda, har yili aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati hamda kambag'allik darajasi ko'rsatkichlari shakllantiriladi va e'lon qilib boriladi. Shuningdek, qaror bilan Statistika agentligi vakolatlari, majburiyatlari va hisobdorligi yanada mustahkamlab qo'yildi. Xususan, Agentlik rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirishi, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bevosita bo'ysunishi va unga hisobot taqdim etishi, statistika ishlarining bajarilishi to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot Qaror bilan o'rnatilayotgan tartibga muvofiq: berib borishi belgilab qo'yildi. Agentlik o'z vakolatlarini barcha davlat organlari va

tashkilotlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, statistika organlarining qonuniy faoliyatiga, shu jumladan, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, statistika ma'lumotlarini tayyorlash va e'lon qilish jarayonlariga har qanday aralashishga yo'l qo'yilmaydi; Agentlik tomonidan shakllantiriladigan statistika ma'lumotlari rasmiy statistika axboroti sifatida e'lon qilinadi. O'z navbatida, sohada kadrlar malakasini oshirish tizimi tubdan takomillashtiriladi, xodimlarni qayta tayyorlash, vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlari malakasini oshirish ishlari tashkil etiladi, bu borada xorijiy hamkorlar, shu jumladan Koreya Respublikasining Statistika trening instituti va Statistik tadqiqotlar instituti bilan hamkorlik o'rnatiladi. Shunday qilib, ushbu islohotlar Yangi O'zbekiston sharoitida statistika sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan samarali boshqaruv tizimini shakllantirish imkonini beradi, amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning shaffofligi esa xalqaro hamjamiyatning O'zbekiston statistikasiga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga doir statistik ma'lumotlar etib, Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2024- yilning 1- aprel holatiga 4 079 539 kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 18,0 ming kishiga yoki 0,4 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 320,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,9 %), qishloq aholisi soni 1 759,5 ming kishi (43,1 %) ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot(keying o'rinlarda –YAHM)hajmijoriy narxlarda 13 043,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,1 %ga o'sdi. YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,8 %ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 5,4 %ga yetdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 8 402,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab hiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,1 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar – mart oyida, Farg'ona viloyatida jami 1956,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2023- yilning yanvar- mart oyiga nisbatan 107,7%ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida 5 137,8 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 65,5 %i yoki 3 366,7 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 34,5 % yoki 1 771,1 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 838,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,7 %ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 363,8 mlrd so'mni, hajmning o'sish sur'ati – 112,2 % ni tashkil qilgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024–yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot xizmat)larining umumiy hajmi 3 822,8 mlrd. so'mni yoki 2023–yilning mos davriga nisbatan 104,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3 709 mlrd. so'mni (104,1 %), o'rmon xo'jaligi – 99,2 mlrd. so'mni (104,1 %), baliqchilik xo'jaligi – 14,6 mlrd. so'mni (104,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarkibida Farg'ona viloyatining ulushi 8,4 %ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 393,1mln. AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 46,1mln. AQSH dollariga yoki 10,5 %ga kamaydi.

